Mashamba va Gani (Journal of Governance & Regulation, 2022) Afrika davlatlarining 12 mamlakatidagi 41 ta bank faoliyatini oʻrganib, muhim xulosaga kelgan: CROning kuzatuv kengashiga toʻgʻridan toʻgʻri hisobot berishi hamda uning tayinlanishida kengashning hal qiluvchi rol oʻynashi bank risklarini boshqarishda fundamental ahamiyat kasb etadi [6]. Tadqiqotchilar taʼkidlashicha, “CROning mustaqilligi faqat qonuniy shaklda emas, balki kundalik qarorlar qabul qilish jarayonida ham taʼminlanishi zarur”.

Sheedy va Griffin (Journal of Management Control, 2021) 180 dan ortiq ilmiy maqolani tizimli ravishda tahlil qilib, risk madaniyatini bank xavfsizligini taʼminlashdagi hal qiluvchi, biroq eng kam oʻlchanadigan omil sifatida tavsiflagan [7]. Tadqiqotchilarning asosiy xulosasiga koʻra, risk madaniyatini faqat ichki audit va meʼyoriy muvofiqlik orqali emas, balki rahbariyatning kundalik xulq-atvori, ragʻbatlantirish tizimlari hamda xodimlar uchun “xavfsiz xabar berish” mexanizmlari orqali shakllantirish zarur.

Piao (Wireless Communications and Mobile Computing, 2022) zamonaviy tijorat banklarida risk boshqaruvi tizimini tahlil qilib, risk menejerlari moliyaviy va texnik koʻnikmalar bilan bir qatorda xulq-atvor moliyasi asoslarini ham bilishi zarurligini qayd etadi, chunki kognitiv xatolar — ortiqcha ishonch va tasdiqlash tendensiyasi — samarali risk nazoratiga toʻsqinlik qiladi [8].

Nguyen va boshq. (Journal of Financial Stability, 2023) Vyetnamning 26 ta tijorat bankida raqamli transformatsiyaning risk boshqaruviga taʼsirini oʻrganib, raqamlashtirish kredit riskini oʻrtacha 18% ga kamaytirishi mumkinligini aniqlagan [9]. Biroq olimlar taʼkidlashicha, faqat texnologiyalarni joriy etish yetarli emas, ular xodimlar koʻnikmalari va boshqaruv madaniyati bilan uygʻunlashgandagina samarali natija beradi (1-jadval).

1-jadval. Xorijiy tadqiqotchilarning asosiy xulosalari[1]

| Muallif / Manba | Tadqiqot | Asosiy xulosa |
|---|---|---|
| Kacem, El Harbi Risk Management, 2022 | 196 bank, risk qo'mitasi | Mustaqil a'zolar ulushi bank barqarorligini oshiradi |
| Mashamba, Gani J. of Governance, 2022 | 41 Afrika banki, CRO | CRO ning CEO dan mustaqilligi amalda ta'minlanmasa - nazorat samarasiz |
| Sheedy, Griffin J. of Mgmt Control, 2021 | 180+ maqola, risk madaniyati | Rag'batlantirish va whistleblowing orqali shakllanadi |
| Piao Wireless Comm., 2022 | Xulq-atvor moliyasi | Kognitiv xatolarni kamaytirish uchun SI modellari zarur |
| Nguyen va boshq. J. Fin. Stability, 2023 | Raqamlashtirish, Vyetnam | Raqamlashtirish kredit riskini 18% ga kamaytiradi |

## TAHLIL VA NATIJALAR

Markaziy bankning 3427-son Nizomining 4-bandida tijorat banklarida “uch mudofaa liniyasi” metodiga asoslangan tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini majburiy joriy etish belgilangan. Birinchi liniya — biznes bo‘linmalari, ikkinchi liniya — risklarni boshqarish va muvofiqlik bo‘linmalari, uchinchi liniya esa ichki audit xizmatidan iborat.

Biroq amaliyotda ushbu modelning samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan ikkinchi liniyaning birinchi liniyadan haqiqiy mustaqilligi ko‘plab O‘zbekiston banklarida ta’minlanmagan. Risk bo‘limi xodimlari kredit komissiyasi yig‘ilishlarida ovoz berish huquqiga ega emas yoki ularning salbiy xulosalari kredit ajratish to‘g‘risidagi qarorni amalda to‘xtata olmaydi. International Monetary Fundning FSAP baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, banklar “uch mudofaa liniyasi” tizimini rasmiy hujjatlarda e’tirof etsalar-da, amaliyotda risk bo‘limlari ko‘pincha “ovozga ega bo‘lmagan nazoratchi” sifatida faoliyat yuritmoqda [3].

Silicon Valley Bank (SVB) bankrotligi (2023) tahlili shuni ko‘rsatdiki, bank “uch mudofaa liniyasi” tizimiga ega bo‘lishiga qaramay, risk bo‘limi foiz stavkasi riskini kuzatuv kengashiga yetkazishda samarasiz faoliyat yuritgan. Bu holat tizimning rasmiy mavjudligi emas, balki uning amaliy ishlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi [10].

Amaldagi me’yoriy talab, ya’ni 3427-son Nizomning 30-bandiga ko‘ra, risk bo‘limi kuzatuv kengashiga va tavakkalchiliklarni boshqarish qo‘mitasiga (agar tashkil etilgan bo‘lsa) bevosita bo‘ysunishi lozim. Shuningdek, uning rahbarlari kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanishi va kengash oldida hisobdor bo‘lishi, rag‘batlantirish miqdori kuzatuv kengashi tomonidan belgilanishi hamda biznes bo‘linmalari faoliyati natijalariga bog‘liq bo‘lmasligi kerak. Bundan tashqari, risk bo‘limi rahbarida kuzatuv kengashi bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muhokamalar olib borish imkoniyati mavjud bo‘lishi shart. Nizomning 35-bandiga ko‘ra esa risk bo‘limi rahbari bank boshqaruvi va qo‘mitalarining risk-ishtahani buzishi mumkin bo‘lgan qarorlariga veto huquqini qo‘llashi hamda bu haqda zudlik bilan kuzatuv kengashini xabardor qilishi lozim. Rahbar bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda bank besh kun ichida O‘zbekiston Markaziy bankini xabardor qilishi majburiy hisoblanadi.

Biroq FSAP baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, aksariyat banklarda, ayniqsa davlat tijorat banklarida, CRO amalda faqat bosh ijrochi direktor (CEO)ga bo‘ysunadi, kuzatuv kengashiga esa faqat rasmiy hisobotlar taqdim etiladi. Bu holat Nizomning 30-bandida belgilangan to‘g‘ridan to‘g‘ri bo‘ysunuv talabiga zid hisoblanadi [3]. Xuddi shuningdek, veto huquqining amaliy qo‘llanilishi ham juda kam uchraydigan holat bo‘lib qolmoqda, garchi Nizomning 35-bandida ushbu vakolat aniq belgilangan bo‘lsa ham.

Yirik davlat tijorat banklarida yo‘naltirilgan kreditlash dasturlari natijasida risk menejerlari hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan kreditlarga nisbatan e’tiroz bildirishdan cho‘chimoqda. Bu esa Nizomning 30-bandida belgilangan CRO mustaqilligi talabining amalda cheklanishiga olib kelmoqda. 2017–2023-yillarda davlat tijorat banklarini davlat mablag‘lari hisobidan yillik rekapitalizatsiya qilish hajmi YaIMning 0,4 foizidan 2,0 foizigacha yetib, jami qariyb 5,8 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi. Mazkur holat risk menejment amaliyotidagi zaifliklarni tasdiqlaydi [4].

1 Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Markaziy bankning 3427-son Nizomining 8-bandiga koʻra, kuzatuv kengashi risk-ishtaha bayonotini majburiy ravishda tasdiqlashi lozim. Nizomning 10-bandida mazkur bayonot stress-test natijalarini hisobga olishi, kapital va likvidlik boʻyicha minimal darajadan yuqori maqbul koʻrsatkichlarni belgilashi hamda ragʻbatlantirish tizimi bilan muvofiqlashtirilishi kerakligi qayd etilgan. 11-bandga muvofiq risk darajalari — past, oʻrta va yuqori — aniq belgilanishi shart.

Amaliyotda esa koʻplab banklarda risk-ishtaha bayonoti rasmiy hujjat sifatida mavjud boʻlsa-da, u ragʻbatlantirish tizimiga integratsiya qilinmagan hamda qarorlar qabul qilish jarayonida amalda inobatga olinmaydi. Bu holat Nizomning 10-bandida belgilangan "ragʻbatlantirish tizimini inobatga olish" talabiga zid hisoblanadi. Bundan tashqari, risk boʻlimlari tomonidan tayyorlanadigan choraklik hisobotlar koʻpincha formal xarakter kasb etib, kuzatuv kengashi darajasida chuqur muhokama qilinmayapti.

Nizomning 15-bandiga koʻra, stress-test yiliga kamida bir marta oʻtkazilishi shart. 16-bandga muvofiq kredit riskini stress-testdan oʻtkazishda mamlakat iqtisodiy holati va bankning ichki omillari hisobga olinishi lozim. 17-bandga koʻra, likvidlik riskini stress-testdan oʻtkazishda ikki stsenariy — bankka xos stsenariy hamda bank tizimidagi inqiroz stsenariyi — qoʻllanishi majburiy. 20-bandda stress-test natijalari kapital va likvidlikni rejalashtirishda qoʻllanishi kerakligi, 21-bandda esa ushbu natijalar asosida yiliga kamida bir marta favqulodda moliyalashtirish rejasi ishlab chiqilishi lozimligi belgilangan.

Biroq amaliyotda koʻplab banklar stress-testlarni yiliga bir marta faqat Markaziy bankka hisobot taqdim etish maqsadida oʻtkazmoqda, biroq uning natijalaridan strategik qarorlar qabul qilishda foydalanmayapti. Bu esa Nizomning 20-bandida nazarda tutilgan "stress-test natijalarini strategiya va kapitalni rejalashtirishda qoʻllash" talabiga zid hisoblanadi. Favqulodda moliyalashtirish rejasi esa ayrim banklarda hali toʻliq ishlab chiqilmagan.

Nizomning 34-bandiga koʻra, risk boʻlimi kredit, likvidlik, bozor, operatsion, mamlakat risklari hamda bank portfelidagi foiz risklari boʻyicha hisobotlarni kuzatuv kengashiga har chorakda, bank boshqaruviga esa har oyda kamida bir marta taqdim etishi lozim. Bundan tashqari, bank risk profili yiliga kamida bir marta baholanishi, xodimlar uchun muntazam trening va seminarlar tashkil etilishi hamda erta ogohlantirish tizimlari ishlab chiqilishi va joriy etilishi shart. 35-bandga muvofiq, tavakkalchilik darajasi sezilarli oshgan taqdirda risk boʻlimi rahbari kuzatuv kengashining navbatdan tashqari yigʻilishini chaqirish masalasi boʻyicha bank boshqaruviga murojaat qilishi kerak.

Biroq amaliyotda koʻplab banklarda oylik hisobotlar muntazam taqdim etilmayapti, yillik risk profili baholashlari esa koʻpincha formal xarakterga ega. Erta ogohlantirish tizimlari (EWS) esa aksariyat banklarda hali joriy etilmagan yoki faqat rasmiy shaklda mavjud [3].

Nizomning 25-bandiga koʻra, bankda risk madaniyatini shakllantirish maqsadida xodimlarga risk-ishtaha va tavakkalchilik chegaralari boʻyicha javobgarliklari haqida muntazam maʼlumot berilishi, korporativ qadriyatlar va odob-axloq kodeksi doimiy ravishda yetkazib borilishi, sezilarli tavakkalchiliklar yuzasidan seminar va treninglar tashkil etilishi hamda barcha uchun ochiq aloqa tizimlari yoʻlga qoʻyilishi lozim.

Biroq amaliyotda ragʻbatlantirish tizimi, xususan moddiy mukofotlash mexanizmi, Nizomning 25-bandida nazarda tutilgan talablarga zid tarzda shakllantirilgan. Kredit boʻlimi xodimlarining bonuslari kredit hajmiga bogʻlangan boʻlib, uzoq muddatli kredit sifati yetarli darajada hisobga olinmaydi. Bu esa "short-termism" muammosini yuzaga keltirmoqda [7]. Xavfsiz xabar berish (whistleblowing) mexanizmi Nizomda bevosita nazarda tutilmagan boʻlsa-da, amaliyotda xabar berish madaniyati deyarli shakllanmagan. Bu esa madaniy oʻzgarishlarni faqat normativ talablar emas, balki rahbariyatning kundalik xulq-atvori orqali ham shakllantirish zarurligini koʻrsatadi.

Nizomning 46-bandiga koʻra, kredit riski boʻyicha risk-ishtaha quyidagi koʻrsatkichlarni oʻz ichiga olishi shart: jami aktivlarda kreditlar ulushining eng yuqori miqdori, kredit portfelining yillik oʻsishining eng yuqori darajasi, bir qarz oluvchi uchun birinchi darajali kapitalga nisbatan maksimal risk miqdori hamda muammoli aktivlar ulushining eng yuqori chegarasi. 47-bandga muvofiq, risk chegaralari buzilgan taqdirda risk boʻlimi bir ish kuni ichida kuzatuv kengashini xabardor qilishi va besh ish kuni ichida tuzatuvchi choralarni taklif etishi kerak. 51-bandga koʻra, kuzatuv kengashi kreditlash jarayonini doimiy nazorat qilishi, 52-bandga muvofiq esa yakka va portfel kesimida kredit monitoringi tizimi joriy etilishi lozim.

2023-yil dekabr holatiga koʻra, IFRS 9 talablari boʻyicha 3-bosqich kreditlar ulushi amaldagi meʼyoriy koʻrsatkichga nisbatan deyarli ikki barobar yuqori boʻlib, taxminan 8 foizni tashkil etdi. Ipoteka Bankni xususiylashtirish jarayonida 3-bosqich kreditlar ulushi 7,1 foizdan 18,7 foizgacha oshgani Nizomning 46-bandida belgilangan muammoli aktivlar ulushi boʻyicha cheklovlar yetarli darajada nazorat qilinmaganini koʻrsatadi [4]. Bu esa kredit siyosati va kredit monitoringi tizimida Nizom talablariga zid boʻlgan muhim boʻshliqlar mavjudligini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval. 3427-son Nizom talablari va amaliy tatbiq holati[2]

| Nizom bandi | Talab mazmuni | Tatbiq holati | Tafovut darajasi |
|---|---|---|---|
| 4-band | Uch mudofaa liniyasi tizimi | Rasmiy bor, amalda cheklangan | O'rtacha |
| 30-band | CRO - kuzatuv kengashiga to'g'ri hisobot | Ko'pincha faqat CEOga | Yuqori |
| 35-band | CRO - veto huquqi | Rasmiy bor, amalda qo'llanilmaydi | Yuqori |
| 8, 10-band | Risk ishtahasi bayonoti (kuzatuv kengashi tasdig'ida) | Mavjud, lekin amalda kuchsiz | O'rtacha |
| 15-band | Yillik stress-test majburiyligi | O'tkaziladi, natijalar ishlatilmaydi | O'rtacha |
| 21-band | Favqulodda moliyalashtirish rejasi | Ko'pchilikda yo'q yoki to'liq emas | Yuqori |
| 25-band | Risk madaniyati (trening, aloqa) | Rasmiy, natijasiz | Yuqori |
| 34-band | Oylik hisobotlar boshqaruvga | Ko'pincha bajarilmaydi | Yuqori |
| 46, 47-band | Kredit riski chegara va monitoring | Qisman bajariladi | O'rtacha |
| 51-band | Kuzatuv kengashi kredit nazorati | Nominal | Yuqori |

Monetary Authority of Singapore (MAS) har uch yilda barcha tizimli ahamiyatga ega banklarning risk boshqaruvi tizimini mustaqil tashqi baholash orqali tekshiradi. Baholash natijalarining ommaga e'lon qilinishi bozor intizomini yanada kuchaytiradi [5].

Financial Conduct Authority tomonidan joriy etilgan Buyuk Britaniyaning "Senior Managers and Certification Regime" (SMCR) tizimi yuqori lavozimli risk menejerlarini shaxsan javobgar etib belgilaydi. Mazkur tizim "boshqa kimdir javobgar" degan yondashuvni bartaraf etishga xizmat qiladi. SMCR joriy etilganidan so'ng Buyuk Britaniya banklarida risk bo'limlari tomonidan aniqlanib xabar qilingan muammolar soni 35 foizga oshgan [7].

Koreya Respublikasi 1997-yilgi moliyaviy inqirozdan so'ng har bir yirik kredit bo'yicha kreditorlardan mustaqil parallel risk baholashini majburiy tartibda joriy etdi. Bundan tashqari, CRO imzosisiz kredit ajratish taqiqlandi. Ushbu islohotlar natijasida 2000-yillarning o'rtalariga kelib Koreya bank tizimi sezilarli darajada barqarorlashdi [9].

Quyidagi tavsiyalar 3427-son Nizomda allaqachon belgilangan, biroq amaliyotda ularning samaradorligini yanada oshirish hamda ijrosini mustahkamlashga qaratilgan:

1. Markaziy bank har yilgi tekshiruvlar doirasida CRO va risk bo'limining kuzatuv kengashiga to'g'ridan to'g'ri hisobot berish mexanizmini batafsil baholashi hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar va zarur choralarni belgilashi maqsadga muvofiq.
2. Markaziy bank har bir bankda veto huquqining qo'llanish amaliyotini yillik nazorat indikatorlaridan biri sifatida monitoring qilishi, banklar esa veto murojaatlari va ular bo'yicha qabul qilingan qarorlarni aks ettiruvchi alohida jurnal yuritishi tavsiya etiladi.
3. Favqulodda moliyalashtirish rejasining to'liq va sifatli ishlab chiqilishini ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan ushbu hujjatning kuzatuv kengashida yiliga kamida bir marta muhokama qilinishi hamda Markaziy bankka taqdim etilishi nazorat qilinishi lozim.
4. Markaziy bank banklarning risk bo'linmalari tomonidan oylik hisobotlarning boshqaruvga va choraklik hisobotlarning kuzatuv kengashiga taqdim etilishini avtomatlashtirilgan hisobot tizimi orqali monitoring qilishi maqsadga muvofiq. Mazkur hisobotlar nafaqat rasmiy ma'lumotlarni, balki mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ham o'z ichiga olishi lozim.
5. Stress-test natijalarining bank kapitalini rejalashtirish jarayoniga integratsiya qilinganligini Markaziy bank tomonidan har yilgi baholashlar doirasida tahlil qilish tavsiya etiladi. Shu maqsadda banklar stress-test xulosalari bilan kapital rejasi o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi alohida hujjat taqdim etishi mumkin.

2 Manba: XVF FSAP (2025), 3427-son Nizom; muallif tahlili.

Quyidagi tavsiyalar esa 3427-son Nizomda bevosita nazarda tutilmagan bo'lsa-da, risk menejment tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi:

6. Markaziy bank yirik va tizimli ahamiyatga ega banklarda CRO lavozimi uchun minimal malaka standartlarini belgilashi maqsadga muvofiq. Jumladan, xalqaro tan olingan sertifikatlarga (FRM, PRM yoki risklarni boshqarish yo'nalishida ilmiy faoliyat olib borgan mutaxassislar) ega bo'lish yoki bank sohasida kamida 10 yillik amaliy tajribaga ega bo'lish mezonlari ko'rib chiqilishi mumkin. Hozirgi Nizomda xodimlar malakasiga doir aniq minimal talablar yetarli darajada batafsil belgilanmagan.

7. Xavfsiz xabar berish (whistleblowing) mexanizmlarini huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish tavsiya etiladi. 3427-son Nizomning 25-bandida risk madaniyatini shakllantirish maqsadida "barcha uchun ochiq aloqa tizimlari" nazarda tutilgan bo'lsa-da, xodimlarni himoya qiluvchi alohida mexanizmlarni yanada aniqlashtirish foydali bo'lishi mumkin.

8. Rag'batlantirish tizimini risk ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashtirish mexanizmlarini Nizomga qo'shimcha ravishda kiritish maqsadga muvofiq. Hozirgi Nizomning 25-bandida rag'batlantirish tizimlarining risk madaniyatiga mos bo'lishi qayd etilgan, biroq amaliy mexanizmlarni yanada batafsil belgilash tizim samaradorligini oshirishi mumkin.

9. Iqlim risklarini Nizomdagi "sezilarli tavakkalchiliklar" ro'yxatiga kiritish istiqbolda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Hozirgi Nizomda kredit, likvidlik, bozor, operatsion, komplayens, mamlakat va foiz risklari asosiy tavakkalchiliklar sifatida belgilangan bo'lsa-da, iqlim va kiber risklariga oid yondashuvlarni ham kengaytirish dolzarb hisoblanadi.

10. Davlat tijorat banklarida yo'naltirilgan kreditlar bo'yicha ham Nizomning 46–47-bandlarida nazarda tutilgan risk chegaralari talablarini yagona tamoyillar asosida qo'llash hamda hukumat tomonidan yo'naltiriladigan kreditlarni balansda alohida kategoriya sifatida aks ettirish tizim shaffofligini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin (3-jadval).

3-jadval. Tavsiyalar, huquqiy asos va amalga oshirish ustuvorligi[3]

| № | Tavsiya | Huquqiy asos | Javobgar | Ustuvorlik |
|---|---|---|---|---|
| 1 | CRO bo'ysunuvi nazoratini kuchaytirish | 3427-son Nizom, 30-band | MB | Juda yuqori |
| 2 | Veto huquqi jurnali joriy etish | 3427-son Nizom, 35-band | Banklar + MB | Juda yuqori |
| 3 | Favqulodda moliyalashtirish rejasi nazorati | 3427-son Nizom, 21-band | MB | Yuqori |
| 4 | Oylik hisobotlar nazoratini kuchaytirish | 3427-son Nizom, 34-band | MB | Yuqori |
| 5 | Stress-test — kapital rejaga integratsiya | 3427-son Nizom, 20-band | Banklar + MB | Yuqori |
| 6 | CRO malaka standartlari (yangi talab) | Nizomga qo'shimcha | MB | Yuqori |
| 7 | Whistleblowing qonuniy himoyasi | Yangi me'yoriy akt | MB + Qonunchilik | O'rtacha |
| 8 | Rag'batlantirish — risk KPI (yangi talab) | Nizomga qo'shimcha | Banklar + MB | O'rtacha |
| 9 | Iqlim va kiber riskni Nizomga kiritish | Nizomni yangilash | MB | O'rtacha |
| 10 | Davlat tijorat banklarida yo'naltirilgan kreditlar nazorati | Nizom 46-band + yangi | MB + IMV | Juda yuqori |

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklarida risk menejment tizimi baholanib, quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, 3427-son Nizom O'zbekiston bank sektorida risk menejment tizimini tubdan takomillashtirish uchun muhim me'yoriy asos yaratgan. Mazkur Nizom "uch mudofaa liniyasi" modeli, CRO mustaqilligi, risk-ishtaha bayonoti, stress-test, veto huquqi hamda oylik hisobotlar kabi zamonaviy xalqaro standartlarga mos talablarni belgilab bergan.

Ikkinchidan, asosiy masala me'yoriy bazaning mavjudligida emas, balki uning amaliyotga samarali integratsiya qilinishidadir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, banklarda Nizom talablarining rasmiy hujjatlarda aks ettirilishi bilan bir qatorda, ularni kundalik faoliyat jarayonlariga yanada samarali integratsiya qilish muhim

3 Manba: muallif tahlili asosida tuzilgan.

ahamiyat kasb etadi. Mazkur holat risk menejment tizimi samaradorligini oshirish hamda amaliy natijadorlikni yanada mustahkamlash zaruratini ko‘rsatmoqda.

Uchinchidan, davlat tijorat banklarida yo‘naltirilgan kreditlash amaliyoti ayrim hollarda Nizomda belgilangan CRO mustaqilligi hamda kredit riski chegaralariga oid talablarning to‘liq qo‘llanishiga murakkablik tug‘dirmoqda. Mazkur masalani bosqichma-bosqich hal etish boshqa islohotlarning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin.

To‘rtinchidan, xalqaro tajriba — Singapur, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya misolida — muvaffaqiyatli risk menejment tizimi nafaqat me’yoriy talablar, balki samarali nazorat, javobgarlik va risk madaniyatini shakllantirish mexanizmlari orqali ta’minlanishini ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, Central Bank of the Republic of Uzbekistan ushbu tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish imkoniyatiga ega.

Beshinchidan, amaldagi Nizomda iqlim risklari, kiberxavfsizlik risklari hamda whistleblowing mexanizmlariga oid ayrim jihatlar yanada kengroq yoritilishi mumkin. Shu bois ushbu yo‘nalishlarda Nizomga qo‘shimcha o‘zgartirishlar kiritish yoki alohida me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, 3427-son Nizom O‘zbekiston bank sektorida risk menejment tizimini zamonaviy xalqaro standartlar asosida tartibga solishda mustahkam poydevor vazifasini bajaradi. Kelgusida ushbu talablarning samarali nazorat mexanizmlari orqali amaliyotga to‘liq tatbiq etilishi, kadrlar salohiyatini oshirish hamda iqlim va kiber risklari kabi yangi tahdidlarga mos ravishda Nizomni takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Harvard Law School Forum on Corporate Governance. *Corporate Governance, Board Oversight & the 2023 Banking Crisis*. – 2024. [Elektron resurs]. – URL: https://corpgov.law.harvard.edu/2024/05/14/corporate-governance-board-oversight-the-2023-banking-crisis/
2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. *Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risidagi Nizom* (3427-son). – Toshkent: OMB, 2023-yil 18-aprel. [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/6370664
3. International Monetary Fund. *O‘zbekiston Respublikasi: Moliya sektorini baholash dasturi (FSAP)*. – Vashington: XVF, 2025. [Elektron resurs]. – URL: https://documents1.worldbank.org/curated/en/099081925064533229/pdf/P506984.pdf
4. World Bank. *O‘zbekiston Respublikasi: Moliya sektorini baholash*. – Vashington: JB, 2025. [Elektron resurs]. – URL: https://documents1.worldbank.org/curated/en/099072925165040123/pdf/BOSIB-098cfdae.pdf
5. Kacem O., El Harbi S. Do risk governance and effective board affect bank performance? Evidence from large banks worldwide // *Risk Management*. – 2022. – No. 24. – P. 461–483. – DOI: 10.1057/s41283-022-00101-1.
6. Mashamba T., Gani S. Risk governance and risk-taking behavior of banks in emerging markets // *Journal of Governance & Regulation*. – 2022. – Vol. 11, No. 2. – P. 15–31. – DOI: 10.22495/jgrv11i2art2.
7. Sheedy E., Griffin B. Banks’ risk culture and management control systems: A systematic literature review // *Journal of Management Control*. – 2021. [Elektron resurs]. – URL: https://link.springer.com/article/10.1007/s00187-021-00325-4
8. Piao M. Risk management analysis of modern commercial banks using behavioral finance theory and artificial neural networks // *Wireless Communications and Mobile Computing*. – 2022. – DOI: 10.1155/2022/1161784.
9. Nguyen T. et al. How digital transformation affects bank risk: Evidence from listed Vietnamese banks // *Journal of Financial Stability*. – 2023. [Elektron resurs]. – URL: https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1544612323006918
10. Basel Committee on Banking Supervision. *Corporate Governance Principles for Banks*. – BIS, 2015 (updated 2023). [Elektron resurs]. – URL: https://www.bis.org/fsi/fsisummaries/corp_gov_principles.htm
11. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. *2024-yil Moliyaviy barqarorlik hisoboti*. [Elektron resurs]. – URL: https://cbu.uz/en/press_center/releases/2489245/
12. Federal Reserve System / Cornell Law School. *12 CFR § 252.22 Risk Committee Requirement*. [Elektron resurs]. – URL: https://www.law.cornell.edu/cfr/text/12/252.22
13. Adeyemi B. et al. Board risk committee composition and risk-taking of deposit money banks in Nigeria // *Cogent Business & Management*. – 2023. – DOI: 10.1080/23311975.2023.2187884.
14. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. *2024-yil 1-yarim yilligi moliyaviy barqarorlik hisoboti*. [Elektron resurs]. – URL: https://cbu.uz/en/press_center/releases/1914854/

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 5 (2)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz